

TABRIK NUTQINING TURLI HUDUDLARDA TURLICH A QO'LLANILISHI

Bozorboyeva Shaxrizoda Ilhomjon qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7975009>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabrik nutqi turlari haqida ma'lumot berilgan. Tabrik nutqlarining turli hududlarda turlicha qo'llanilishi misollar tariqasida yoritib berilgan.

Nutq – bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq harakatdagi til bo'lib, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi va so'z shakllari, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Nutq madaniyati, madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalq tillarida qadimdan mavjud hodisadir. Bu tushuncha ma'lum lingvistik me'yorlar, etikaviy va estetikaviy talablar bilan aloqador bo'lgan tushuncha. Nutq madaniyati tilni ravshan, ifodali tuza olish mahoratidir. (A. Gurevich). Nutq madaniyati atamasi hozirgi zamon tilshunoslik talqinida uch xil hodisaning nomi sifatida qo'llanmoqda. Bular : 1) madaniy nutqning, ya'ni nutqiy hodisaning nomi; 2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi; 3) nutq madaniyati muammosini o'rganish bilan maxsus shug'ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo'limining nomi. Keltirilgan uchta hodisaning har birini bir-biri bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Nutq madaniyati faqat to'g'ri nutqninggina emas, balki nutqiy chechanlik

hamdir. (G.O. Vinokur. Ojegov S.I.: "Yuqori nutq madaniyati – bu o'z fikrlarini til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir. To'g'ri nutq deb esa hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytiladi. Ammo yuqori nutq madaniyati faqatgina me'yorga rioya qilishdan iborat emas. U yana fikrni ifodalashning aniq vositasini topishdangina iborat bo'lib qolmasdan, birmuncha ta'sirchan va maqsadga muvofiq vositalarni topish uquvini ham o'z ichiga oladi". Turli tadbirlarda bayramlarda, yubileylarda, to'ylarda, tantanalarda, tug'ilgan kunlarda so'zlanadigan nutq tabrik nutqi hisoblanadi. Tabrik nutqi nutq atalgan shaxs va hodisalarning yaxshi xususiyatlarini ko'rsatishga, ularni maqtashga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham bu nutq ko'tarinki, tantanali ruhda so'zlanadi. Til boyligidan ham shunga mos foydalaniladi. Tabrik nutqida ham notiq turli dalillardan foydalanadi. Bu dalillar nutq atalgan shaxsning fazilatlarini ko'rsatishga qaratiladi. Notiq dalil sifatida uning tarjimai holidan, ijodidan, ishlaridan parchalar keltirishi mumkin.

Tabrik so'zi manzilga muayyan mamnuniyat ta'minlanishi lozim. Buning uchun ijobiy fazilatlar, yutuqlari, xarakatlari, kun uchun munosib qahramonning amallari tasvirlab kiritilish kerak maqtov majburiy qismi bo'lganligi uchun. Tabrik nutqida xilma xil shakllardan, usullardan foydalansa bo'ladi. Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida mahsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'ana kirib qolgan hatti-xarakatlar majmuyidan iborat holda tashkil topgan tadbir marosim deyiladi. Shu o'rinda Oxunjon Safarov o'zining kitobida marosimlarning inson hayotiga aloqadorligiga ko'ra uni ikki guruhga bo'ladi:

1. To'y ma'rosimlari
2. Motam marosimlari

Respublikamizda 12 ta viloyat bo'lsa, to'y o'tkazish tartibi ham turlichadir. Har bir xalqning hududning an'analari, urf-odatlar bor. To'y marosimi turli viloyatlarda o'zining urf-odatiga xos, shevasiga mos tarzda tabriklar aytishadi. Masalan, Samarqand viloyatidagi to'ylarda, avvalo, boshlovchilar tomonidan to'y tabrigi bildirilgach, kelin va kuyovning onasini sahnaga taklif qilishadi. Toshkent shahrida esa sahnaga kuyovning do'sti chiqib qalbidagi iliq so'zlari ila kelin-kuyovga baxt tilaydi. Xorazm viloyatida tabrikka mahalla oqsoqoli so'zga chiqib oilaning mahalladagi o'rni va qilgan ezgu amallari haqida gapirib keyin kelin-kuyovning tabrik qismiga urg'u beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi to'ylar ham Xorazm viloyatinikiga o'xshab ketadi. Qishloq oqsoqoli yoki kuyovning otasi tabrik qismida qatnashadi. Misol tariqasida, ushbu tabrik matnini keltirib o'tsak:

“Balam, baxti bol. Barg'an jerinde jaqsi shanaroq bo'ip, uvurli-shuvali bo'lip, el oldinda patiyasin alip, abroli bo'lip jurgaysen. Eki jaqa xizmati buyursin. Qosilg'anin menen qosa qarip eline elavli, jaslarga o'rnex bo'lg'anday baxitli shanaraq bo'lg'aysan. Shu kabi bir qancha viloyatlarda ham tabrik nutqlari o'z shevalari bilan o'zgacha ma'no kasb etib kelmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir xalq o'z tili, o'z shevasi va nutq uslubi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Bilamizki, xalqimiz milliy qadriyatlari asosini marosimlar tashkil etadi. Marosimlarimiz esa o'z nutqi bilan ajralib turadi. Inson jamiyatda yashar ekan har qanday marosimlarda nutq so'zlay olish qobiliyatini shakllantira olishi kerak. Buning uchun maktab darsliklarida o'quvchida tabrik nutqi tuza olish qobiliyati shakllanishi uchun topshiriq va kerakli bilimlarni kiritilish lozim.

References:

1. Oxunjon Safarov "O'zbek xalq og'izaki ijodi" - T.: Musiqi, 2010. 368 b.
2. <https://uz.birmiss.com/tabrik-sozi/>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/tabrik-n>
4. Sh.M.Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi.
5. "Xalq so'zi" 27.06.2018
6. Karimov.I Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T. Ma'naviyat. 2008. – b